

**ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA QO‘LLANGAN FRAZEMALAR  
XUSUSIDA**

**G.Rozikova**

FarDU professori, filologiya fanlari doktori

**D.Abdullayeva**

FarDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15397229>

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada metafora yo‘li bilan ko‘chirish frazeologik birliklarning shakllanishi va taraqqiyotida muhim vosita sifatida o‘rganiladi. Jumladan, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” asari asosida frazeologik birliklarning semantik taraqqiyoti, ma‘nodosh, omonim frazeologizmlar hamda obrazli ifodalar misolida tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning lug‘aviy so‘zlar bilan sinonimik, ayrim hollarda esa omonimik munosabat hosil qilishi, shuningdek, ular orqali personajlarning xarakteri, ruhiy holati va munosabati ifodalanganligi ko‘rsatib beriladi.

**Annotation**

In this article, metaphorically transposition is studied as an important tool in the formation and development of phraseological units. In particular, on the basis of the work “O‘tmishdan ertaklar” by Abdulla Kahhor, the semantic development of phraseological units is analyzed on the example of synonymic, homonymous phraseologisms and figurative expressions. It is shown that phraseologisms form a synonymic and in some cases an homonymic relationship with vocabulary, as well as through them the character, mental state and attitude of the characters are expressed.

**Kalit so‘zlar:**

Frazeologizm, metafora, semantik taraqqiyot, ko‘chma ma‘no, sinonim frazeologizmlar, omonim frazeologizmlar, obrazlilik, personaj tahlili.

**Key words**

Phraseologism, metaphor, semantic progress, figurative meaning, synonym phraseologisms, homonym phraseologisms, figurativeness, character analysis.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirish leksik ma‘no taraqqiyotida ham, frazeologik ma‘noning shakllanishi taraqqiyotida ham eng mahsuldor usul hisoblanadi. Boshini yemoq frazeologizmining ma‘nosi yemoq so‘zining ko‘chma ma‘nosi asosida hosil bo‘lgan. Og‘zi qulog‘ida frazeologizmining ma‘nosi esa butun birikmani obrazli tarzda ko‘chma ma‘noda qo‘llash asosida hosil bo‘lgan. Xuddi shunday pand yemoq frazeologizmining ma‘nosi tarkibidagi yemoq so‘zining ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi natijasida yuzaga kelgan:



Pulni oldingiz, usta, bo pand yemang (“O’tmishdan ertaklar”).

Abdulla Qahhor asarlarida ham bunday iboralar ko‘plab uchraydi. Masalan: Usta Homidjon shu odamning qo‘yniga qo‘l solib ko‘ribdi. (“O’tmishdan ertaklar”)

Ba’zi so‘z birikmalari biron harakat-hodisaning sababi, natijasi sifatidagi harakat-hodisani bildiradi. Keyinchalik bunday harakat-hodisaga sabab bo‘luvchi harakat-hodisani bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi qo‘llanmaydigan bo‘lishi mumkin. Uning ma’nosi esa sababdan kelib chiqadigan harakat-hodisani bildiruvchi so‘z birikmasidan anglashiladigan bo‘ladi. Natijada bu so‘z birikmasi frazeologizmga aylanadi. Bunday frazeologizmlarning ma’nosini tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan keltirib chiqarib bo‘lmaydi. Turobjonning tepa sochi tikka bo‘ldi (“Anor”); Dadam ketmonni tez va yaxshi peshlashi ustiga xat bilishi, nazarimda bozorboshidagi usta Turdialining nonini yarimta qilib qo‘ydi: peshlangan ketmon bir-biridan farq qilmasa ham dehqon o‘z ketmonini olgisi kelar (“O’tmishdan ertaklar”). Sochning tik bo‘lishi birdan va nihoyatda g‘azablanishda, nonning yarimta bo‘lishi topiladigan daromadning bo‘linishi natijasida bo‘ladigan harakatlar. Sabab (asos) bo‘luvchi harakatni bildiradigan g‘azablanmoq, daromadi bo‘linmoq ifodalari qo‘llanmay, ularga xos ma’no tepa sochi tikka bo‘ldi, nonini yarimta qilib qo‘ydi birikmalari orqali ifodalanavergan va oqibat bu birikmalar shu ma’nolarni ifodalovchi frazeologizmlarga aylangan.

Egamberdiboy zamon nima bo‘lishini bilmay har yili qarz, bo‘nakka beradigan pulini tishining kovagiga tiqib qo‘ydi, birovga bir miri bermaydi (“O’tmishdan ertaklar”). Keltirilgan gapda qo‘llangan tishining kovagiga tiqib qo‘ymoq iborasida “yashirmoq” semasi mavjud.

Ma’nodoshlik hodisasi frazeologiya uchun ham xarakterli. Abdulla Qahhorning “O’tmishdan ertaklar” asaridan olingan sir bermay hamda isini chiqarmay iboralari bir-biriga o‘zaro sinonim bo‘lib, “bildirmasdan” degan ma’noni ifoda etadi:

Dadam ikkovi hamon og‘ir yotgan amakimga sir bermay, ko‘chaga chiqadi, uyga kiradi, shivirlashadi (“O’tmishdan ertaklar”).

Oldini olaman deb, isini chiqarib qo‘ymanglar, xudo xohlasa, bu gap mahalladan tashqariga chiqmaydi, mahallada o‘g‘limning dushmani yo‘q (“O’tmishdan ertaklar”).

Lug‘aviy birlik sifatida frazeologizmlar so‘zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo‘la oladi. Quloq solmoq iborasi eshitmoq so‘zi bilan



sinonimik munosabat hosil qiladi. Quyidagi misolda bu iboraning bo'lishsiz shakli qo'llangan:

G'afforjon ko'pincha erkalik, tantiqlik qilib bu gaplarga chandon quloq solmasdi, lekin men quloq solmagani kampirdan hayiqardim ("O'tmishdan ertaklar").

Bir xil komponent (so'z)lardan tuzilgan frazeologizmlar o'zaro bog'lanmagan (tamoman boshqa-boshqa) ma'no ifodalashi mumkin. Bu hodisa frazeologik omonimiyadir. Boshiga ko'tarmoq iborasi e'zozlamoq, hurmat qilmoq ma'nosini ifodalab, shovqin solmoq ma'nosini anglatuvchi xuddi shunday boshiga ko'tarmoq iborasi bilan omonimik munosabat hosil qiladi.

Bu gapdan kampir xabardor bo'lib, hovlini boshiga ko'tardi, ayamni yulmoqchi bo'ldi.

Ko'z yummoq iborasi uxlamoq ma'nosini anglatadi va o'lmoq ma'nosini anglatuvchi xuddi shunday ibora bilan omonimlik hosil qiladi:

Hech kim, hatto kampir ham kechasi bilan ko'z yumradi ("O'tmishdan ertaklar").

Keltirilgan misolda ko'z yumradi iborasi uxlamadi ma'nosini ifodalagan bo'lsa, quyidagi nutq parchasida u o'lmoq ma'nosida qo'llangan:

Onasi ham shunga ilhaq bo'lib ko'z yumolmayapti, – dedi kampir nafasi titrab, – qachon oldiga kirsam: "To'y qachon, ko'zim ochiqligida qizimning to'yini ko'rib qolay", — dedi. O'zimning ham shartim ketib partim qolgan ("O'tmishdan ertaklar").

Adib hikoyalarida personaj tasviri iboralar orqali ham ochiladi:

Qachon? – dedi Sulaymonov achchig'i kelib, – o'zingiz bilasiz-ku, birodar, mingta xushomadgo'yni ho'l olib borib quruq olib kelaman-a! Darrov taniyman-da. Otam sigirning sersut yoki kamsutligini ma'rashidan bilar edi. Men, birodar, yerning tagida ilon qimirlasa bilaman ("Ikki yorti-bir butun" hikoyasidan).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qahhor asarlarida qo'llangan iboralarni tug'ilish va o'lim bilan bog'liq frazeologizmlar, nutq faoliyati bilan bog'liq frazeologizmlar, tafakkur bilan bog'liq frazeologizmlar, hayratlanish, qo'rqish, xafa bo'lish, achchiqlanish, janjallashish kabi holatlar bilan bog'liq frazeologizmlar kabi semantik guruhlariga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.